



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SURXONDARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI

2025-yil 18-yanvar

32-8-0-Q/25

Surxondaryo viloyati
hokimligi

**Surxondaryo viloyatida 2025-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik
uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrdagi “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 660-son qarori, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 29-dekabrdagi 02/29-27269-son hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 30-dekabrdagi 01/23-18/1276-son qo‘shma xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar:

Surxondaryo viloyatida 2025-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari **1-ilovaga**;

Sanaot zonalari hududlaridagi davlat ko‘chmas mulkini 2025-yilda ijaraga berishda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari **2-ilovaga** muvofiq;

ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar **3-ilovaga** muvofiq;

ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarning hisoblash tartibi **4-ilovaga** muvofiq;

viloyat markazi hamda shahar va tumanlar markazida joylashgan (birinchi darajali) ko‘chalar ro‘yxati **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (Y.Namozov)ga:

davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;

ijaraga berilgan davlat mulkini va uni ijaraga berishdan tushadigan mablag'larni hisobga olish va monitoringini olib borish;

ijaraga beriladigan davlat mulki bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

ijara obyektlaridan maqsadli foydalanilishini va ularning saqlanishini, shuningdek, ijara to'lovi o'z vaqtida va to'liq to'lanishini nazorat qilish;

davlat mulkini ijaraga berish sohasidagi qonunchilikni buzish holatlari aniqlangan hollarda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnomalar rasmiylashtirish va sudlarga yuborish;

foydalanilmayotgan davlat mulki ijaraga berilishi to'g'risidagi e'lonlarni va ijaraga berilayotgan davlat mulklari ro'yxatlarini davriy nashrlarda hamda viloyat hokimligining, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasining va Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasining veb-saytlarida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtirilishini ta'minlash topshirilsin.

3. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (Y.Namozov), viloyat Soliq boshqarmasi (E.Narmanov), shahar va tumanlar hokimliklari hududlarda ijara munosabatlarini tartibga solish, ijaraga berilayotgan davlat mulki hisobotini to'g'ri yuritish va budjetga qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida davlat mulkini balansda saqlovchilar tomonidan ijaraga berish samaradorligini oshirish va tashkillashtirishda o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ysin.

4. Viloyat hududiy boshqarmalari, shahar va tumanlar hokimliklari:

- tasarrufidagi va quyi tizim tashkilotlari tasarrufidagi davlat mulkining xatlovdan o'tkazilishi va foydalanilmasdan bo'sh turgan yoki maqsadsiz, samarasiz foydalanilayotgan davlat mulki (qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan, umumiy foydalanishda bo'lmagan balansdagi yerlar) haqida har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha bo'lgan muddatda mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko'rsatilgan ma'lumotlarni;

- quyi tizimlari tomonidan ma'lumotlarni to'liq va o'z vaqtida Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasiga belgilangan tartib va muddatlarda taqdim etilishi ustidan idoraviy nazoratni ta'minlasin.

5. Davlat kadastrlar palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (F.Ashurov) har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar viloyatda mavjud davlat mulki obyektlarining ro'yxatini elektron holatda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga taqdim etib borsin.

6. Viloyat hokimligi axborot xizmati (M.Davlatov), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari tahririyati (S.Norqobilov) mazkur qaror “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalarida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Viloyat hokimining 2024-yil 26-yanvardagi Surxondaryo viloyatida 2024-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 62-8-0-Q/24-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Rajabov zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyat
hokimi**



U.B.Qosimov

Surxondaryo viloyat hokimining
2025-yil 18-yanvardagi
32-8-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Surxondaryo viloyatida 2025-yil davomida davlat ko'chmas mulkidan
foydalanganlik uchun 1 kv.metr maydonga ijara to'lovining eng kam
stavkalari**

T/r	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadlari	2025-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara toʻlovi stavkalari (QQS bilan birga)	
		Termiz shahar	Tumanlar
Ishlab chiqarish			
1	Ishlab chiqarish turlari boʻyicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari)	16 000	11 300
2	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	50 700	36 750
3	Elektr energiya ishlab chiqarish	16 000	11 300
Qurilish sanoati			
4	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, tunikafon, shifer, sement, sendvich panel ishlab chiqarish va yogʻochni qayta ishlash)	16 000	11 300
5	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yogʻochdan)	53 300	34 550
6	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	84 800	48 450
Yengil sanoat			
7	Yengil sanoat turlari boʻyicha (toʻqimachilik, tikuvchilik, charm, moʻyna, poyabzal, sellyuloza-qogʻoz sanoati)	16 000	11 300
Oziq-ovqat sanoati			

8	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (yogʻ, goʻsht, baliq, ichimlik, un, qandolat mahsulotlari hamda omuxta-yem sanoati)	16 000	11 300
9	Chorva (qoʻy) mollarini soʻyish va sotish (jumladan kushxona)	45 200	32 500
10	Sut mahsulotlari sanoati	31 300	22 600
11	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	45 200	28 200
Qishloq xoʻjaligi			
12	Oʻsimlikshunoslik (oʻrmon xoʻjaligi va bogʻlar) 1 gektar yer maydoni uchun	6 456 200	4 624 000
13	Issiqxona xoʻjaligi 1 gektar yer maydoni uchun	16 101 000	11 101 000
14	Chorva va parranda yetishtirish (boqish)	7 700	5 600
15	Baliqchilik (shu jumladan sunʼiy maydon) 1 gektar uchun	14 456 200	9 624 000
16	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	4 196 900	3 005 900
Transport va aloqa			
17	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil toʻxtash joylari va garaj)	16 000	11 300
18	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	8 200	4 050
19	Avtomobillarni yuvish	51 800	32 600
20	Avtomobillarga yoqilgʻi quyish (benzin, dizel)	56 500	42 100
21	Avtomobillarga yoqilgʻi quyish (gaz qoʻyish shoxobchalari)	63 000	45 600
22	Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi	27 400	19 900
23	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini taʼmirlash va texnik xizmat koʻrsatish	51 700	36 900
24	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	39 300	28 400
25	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va transport xizmatlari	29 100	21 000
26	Pochta va kuryerlik aloqasi	35 900	26 000
27	Elektr-simli aloqa (WIFI Router)	32 300	23 000

28	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	135 600	97 200
Savdo va umumiy ovqatlanish			
29	Ulgurji savdo	45 200	32 500
30	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	116 100	83 000
31	Chakana savdo	45 200	32 500
32	Sotuvchisiz elektron uskunalar orqali chakana savdoni tashkil etish	109 800	89 800
33	Umumiy ovqatlanish (Tabiiy va sun'iy suv havzalari hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari va taomlari savdosi, fast fud)	45 200	32 500
34	Kitob do'konlari	6 300	4 700
35	Lombardlar	58 400	41 800
Xizmat ko'rsatish			
36	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya)	45 200	32 500
37	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	67 800	48 700
38	Mehmonxona xo'jaligi	51 700	36 900
39	Umumiy yashash joylari (shu jumladan talabalar va o'quvchilar turar joylari)	40 200	28 200
40	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)	26 000	18 500
41	Mashina va uskunalarini ta'mirlash	16 000	11 300
42	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	35 900	26 000
43	Poligrafiya sanoati	39 300	32 500
44	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	35 900	26 000

45	Suv bo'yida xizmat ko'rsatish joylari (plyaj zonalari, baliq ovlash maskanlari, qayiqda suzish va suv sayohati va suv bo'yida turizm xizmatlarini tashkil etish)*	32 300	23 000
46	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	7 700	5 600
47	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	38 900	28 200
48	Hammomlar	77 800	55 600
49	Saunalar va basseymlar	155 000	111 100
Turizm xizmatlari			
50	Madaniy meros obyektlarida hunarmandchilik turlari bo'yicha (misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va h.k)	48 200	37 700
51	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va h.k)	38 200	27 700
52	Madaniy meros obyektlarida hostel va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish	90 700	70 700
53	Madaniy meros obyektlarida savdo xizmatlarini ko'rsatish (esdalik buyumlari, sovg'alar, hunarmandchilik mahsulotlari va h.k)	70 800	50 800
54	Madaniy meros obyektlarida umumiy ovqatlanish shoxobchalari (restoran, kafe, fas-fud va h.k)	80 700	57 700
55	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	51 700	36 900
Sog'liqni saqlash			
56	Davolash maskani (statsionar davolash)	32 300	23 000
57	Davolash maskani (shu jumladan laboratoriya, operatsion blok, stomatologiya, fizioterapiya)	99 500	79 500
58	Tibbiy asbob uskunalari o'rnatish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	123 100	103 100
59	Tibbiyot sanoati (tibbiyot buyumlari, asbob uskunalari va dori vositalari ishlab chiqarish)	124 100	104 100
60	Fitobar	22 300	16 000
61	Dorixonalar (optika, tibbiyot anjomlari va jihozlari sotish)	54 400	29 200
62	Protez-ortopediya moslamalarini tayyorlash va ta'mirlash	32 300	23 000
63	Ijtimoiy-dorixonalar	23 000	15 000

Jismoniy tarbiya va sport			
64	Sport maydonlari (stadionlar)	29 300	24 300
65	Sport zallari (qo‘l jangi, karate, kurash, sambo, erkin kurash va h.k)	16 000	11 300
66	Fitnes va yengil atletika zallari	128 000	108 000
Ta’lim			
67	Nodavlat ta’lim tashkilotlari (oliy, o‘rta va maktabgacha tarbiya muassasalari)	32 300	23 000
68	Tayyorlov kurslari (IT, malaka oshirish va repitetorlik)	53 300	38 600
69	Oliy ta’lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	31 500	22 700
70	O‘rta maxsus ta’lim muassasalarida (jumladan maktablarda) umumiy ovqatlanish	23 750	17 000
71	Madaniyat va san’at	45 200	32 500
72	Ko‘rgazmalar	34 900	26 100
73	Madaniy dam olishni tashkil etish (bog‘lar, zooparklar, televideniyelar va radioeshittirishlar, tahririyatlar (redaksiyalari))	32 300	23 000
74	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	51 700	36 900
75	Fan va ilmiy xizmatlar ko‘rsatish	19 600	13 800
76	Avtomaktablar	28 650	16 400
77	O‘quv amaliyot poligonlari (test tajriba va sinov maydonlari)	16 000	11 300
Moliya-kredit faoliyati			
78	Moliya, kredit va pensiya ta’minoti (sug‘urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	45 200	32 500
79	Auditorlik faoliyati	45 200	30 400
80	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	70 800	50 800
81	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo‘yicha maslahatxonalar	45 200	32 500
82	Bankomatlar	647 000	463 300
83	Paynetlar	129 700	92 750

84	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (kassalar)	129 700	92 750
85	Front-ofislar (Banklar uchun)	55 200	45 200
86	Bank xizmatlari ofisi	45 200	32 500
87	Sug'urta faoliyati	38 900	32 500
88	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	70 800	50 800
Faoliyatning boshqa turlari			
89	Notarial xizmatlar	45 200	32 500
90	Sud va yuridik xizmat muassasalari hamda advokatlar kollegiyasi	38 900	28 200
91	Jamoat birlashmalari	13 050	9 100
92	Omborxonalar	45 200	32 500
93	Davlat korxona va muassasalari	19 600	13 800
94	Xususiy tashkilotlarga ofis	70 800	50 800
95	Arxiv xizmati	19 600	11 550
96	Tahririyat va nashriyotlar	26 000	18 500
97	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	26 000	18 500
98	Laboratoriyalar (Tibbiy xizmatlardan tashqari)	32 300	23 000

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-sentabrdagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 441-son qaroriga asosan qo'shilgan faoliyat turlari.

Surxondaryo viloyat hokimining
2025-yil 18-yanvardagi
32-8-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Sanaot zonalari hududlaridagi davlat ko'chmas mulkini 2025-yilda ijaraga
berishda 1 kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari**

Taklif etilayotgan narx (QQS bilan birga) (respublika shahar va tumanlar toifalari bo'yicha)			
T/r	Hududlar nomi	Toifalar	Hududiy zonalar 1 kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari
1	Termiz shahar	I	192 000
2	Jarqo'rg'on tumani Termiz tumani	II	163 200
3	Angor tumani Denov tumani Qumqo'rg'on tumani Sariosiyo tumani	III	134 400
4	Boysun tumani Muzrabot tumani Uzun tumani Sherobod tumani Sho'rchi tumani	IV	105 600
5	Bandixon tumani Qiziriq tumani Oltinsoy tumani	V	96 000

Surxondaryo viloyat hokimining
2025-yil 18-yanvardagi
32-8-0-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**2025-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun to'lanadigan
ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan hududiy zonalar
koeffitsiyentlari (Kz)**

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Zonalar	Hududiy zonalar koeffitsiyenti
1.	Termiz shahar	shahar hududi bo'yicha	2,8
2.	Denov tumani	tuman markazi	2,8
		boshqa hududlari	2,5
3.	Jarqo'rg'on tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
4.	Qumqo'rg'on tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
5.	Angor tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
6.	Sariosiyo tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
7.	Uzun tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
8.	Sherobod tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2

9.	Termiz tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
10.	Boysun tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
11.	Shoʻrchi tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
12.	Oltinsoy tumani	tuman markazi	2,3
		boshqa hududlari	2,0
13.	Muzrabot tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
14.	Qiziriq tumani	tuman markazi	2,3
		boshqa hududlari	2,0
15.	Bandixon tumani	tuman markazi	2,3
		boshqa hududlari	2,0

**2025-yilda davlat koʻchmas mulkidan foydalanganlik uchun toʻlanadigan
ijara toʻlovining eng kam stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar va
ijara toʻlovlarini hisoblash tartibi**

**A. Koʻchmas mulkdan foydalanganlik uchun toʻlanadigan ijara
toʻlovini hisoblash tartibi:**

Koʻchmas mulklarning holati va qurilish turiga qarab qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar:

1. Qurilish turi boʻyicha koeffitsiyenti (Kk)

1.1. Qurilish turi boʻyicha koeffitsiyent Kq

- alohida turgan bino

- 1,6

- binoning ichki qismidagi xonalar va taqab qurilgan - 1,2
- binoning ustki qismi, cherdak - 0,9
- yarim yerto‘la, yerto‘la - 0,6
- betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar - 1,6
- texnologik hududlar (maydon)da va betonlangan maydonga o‘rnatilgan uyali aloqa anteninalari uchun - 0,0

1.2. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti Kh

- yer maydoni va binoning ichki o‘tish yo‘laklari mavjud bo‘lganda - 0,7
- texnologik hududlar (maydon)da va betonlangan maydonga o‘rnatilgan uyali aloqa anteninalari uchun - 0,2
- binoning ichki qismi (bino ichidagi xonalar) va binoning ustki qismi uchun (uyali aloqa anteninalari uchun) - 0,0

1.3. Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti Ko

- asosiy avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda - 1,2
- ikkinchi darajali avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda - 1,0
- radio, uyali aloqa va peydjing aloqa anteninalari o‘rnatilganda - 1,1

Bino va inshootlar bo‘yicha ijara to‘lovini hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$Ts=EsxKzx(Kq+Kh+Ko)$$

Bunda:

- Ts** - bir yilga bir kv.m uchun ijara to‘lovining tayanch stavkasi;
- Es** - 1-ilovaga muvofiq faoliyat turiga ko‘ra bir yilga bir kv.m uchun ijara to‘lovining eng kam stavkasi;

- Kz** - hududiy zonalar koeffitsiyenti;
- Kq** - qurilish turi bo'yicha koeffitsiyenti;
- Kh** - tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti;
- Ko** - tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti;

B. Asosiy vositalarga ijara to'lovlarini hisoblash tartibi

Ijara to'lovini hisoblash quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

$$K_b \times S_k \times O_k$$

Asosiy vositalarga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar:

- K_b** - Qayta baholangandan keyingi qiymati
- S_k - 0,30** - Soha koeffitsiyenti
- O_k - 1,4** - Oshirish koeffitsiyenti

Asosiy vositalarning holatidan qat'iy nazar - 1,4 oshirish koeffitsiyentlari qo'llaniladi.

V. Avtotransport vositalarga ijara to'lovlarini hisoblash tartibi

Ijara to'lovini hisoblash quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

$$K_b \times S_k \times O_k$$

Avtotransport vositalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsientlar:

- K_b** - Qayta baholangandan keyingi qiymati
- S_k - 0,30** - Soha koeffitsiyenti
- O_k - 1,3** - Oshirish koeffitsiyenti

Avtotransport vositasining holatidan qat'i nazar - 1,3 oshirish koeffitsiyentlari qo'llaniladi.

Radio, uyali peydjing aloqa antennalari (texnik uskunalari) o'rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun 2025-yilda ijara haqi to'lovlari hisoblanishi tartibi

1. **Bino va inshootlarning yuqori qismi, cherdak, boloxona (shuningdek davlat mulki bo'lgan inshootlarning yuqori qismi) qismlarida o'rnatilganda:**

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o).$$

T_s - bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovi tayanch stavkasi.

E_s - bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo'yicha hisoblanadi).

K_z – hududiy zona koeffitsiyenti.

K_q – 0,9

K_h – 0

K_o – 1,1

2. Bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek, alohida ajratilgan maydonlarga (texnologik hududlar) o'rnatilganda:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o).$$

T_s - bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovi tayanch stavkasi.

E_s - bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo'yicha hisoblanadi).

K_z – hududiy zona koeffitsiyenti.

K_q – 0

K_h – 0,2

K_o – 1,1

3. Bino va inshootlarning ichki qismida joylashgan xonalarga texnik uskunalar o'rnatilganda:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o).$$

T_s - bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovi tayanch stavkasi.

E_s - bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo'yicha hisoblanadi).

K_z – hududiy zona koeffitsiyenti.

Kq – 1,2

Kh – 0

Ko – 1,1

4. Amal qilish muddati navbatdagi yilga o‘tadigan davlat ko‘chmas mulkini ijaraga berish shartnomasi bo‘yicha bo‘lajak yil davri uchun ijara to‘lovining miqdori qo‘shimcha shartnoma (kelishuv) bilan kelgusi yilga tasdiqlangan ijara to‘lovining eng kam miqdorlariga mutanosib tarzda o‘zgartirilib, quyidagi tartibda hisoblanadi.

$$Ts2=(Es2/Es1)*(As/Im)$$

Bunda:

Ts2 — kelgusi yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovining miqdori;

Es1 — avvalgi yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori;

Es2 — kelgusi yilga bir kv.metr uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori;

As — auksion natijalari bo‘yicha belgilangan yillik ijara to‘lovi;

Im — shartnoma bo‘yicha ijaraga olingan maydon.

Surxondaryo viloyat hokimining
2025-yil 18-yanvardagi
32-8-0-Q/25-son qaroriga
4-ilova

Ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlarning hisoblash tartibi

Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdori quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$Ts=Es*Kz*(Kq+Kh+Ko)$$

Bunda:

Ts — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

Es — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

Kz — hududiy zonalar koeffitsiyenti;

Kq — qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent;

Kh — tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti;

Ko — tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent (Kq), tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh) va tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Ko)ning yig'indisi 1 birlikdan kam bo'lgan taqdirda, yaxlitlangan holda 1 birlikka teng hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan koeffitsiyentlar quyidagilarni ifodalaydi, jumladan:

- Hududiy zonalar koeffitsiyenti (Kz) – viloyat, tuman (shahar) markazlari hamda chekka hududlarning rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan koeffitsiyent;

- Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent (K_q) – davlat mulki obyektini yaxlit holatda yoki uning bir qismini (yerto'las, yarim yerto'las, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi) hamda obyektga birlashtirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydoni bo'yicha belgilanadigan koeffitsiyent.

Bunda, ijaraga oluvchi davlat mulki obyektini to'liq ijaraga olganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qurilish turi bo'yicha alohida turgan bino koeffitsiyenti qo'llaniladi;

Ijaraga oluvchi davlat mulki obyektining bir qismini yerto'las, yarim yerto'las, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi yoki birlashtirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydonini ijaraga olganda va ushbu maydonlardan balansda saqlovchi bilan birgalikda foydalanilganda qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent ijaraga berilgan maydon obyektning joylashgan qismi asosida qo'llaniladi.

- Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (K_h) - ushbu koeffitsiyent davlat mulki obyektini yaxlit holatda (to'liq) ijaraga berilganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qo'llanilmaydi qolgan holatlarda (obyektning bir qismi berilganda) qo'llaniladi.

Ushbu koeffitsiyent qo'llanilmagan hollarda obyekt hududidagi betonlashtirilgan (asfaltlangan) maydonlari ijara maydoni sifatida shartnomaga kiritiladi va belgilangan tartibda to'lov undiriladi.

- Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (K_o) - ushbu koeffitsiyent obyekt joylashgan manziling tijoriy faoliyat uchun qulaylik darajasini belgilaydi.

Bunda, ijaraga berilgan obyekt xalqaro va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llariga tutash hududlarda joylashgan bo'lsa asosiy avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi. Mahallalar ichki ko'chalarida joylashgan bo'lsa ikkinchi darajali avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi.

Surxondaryo viloyat hokimining
2025-yil 18-yanvardagi
32-8-0-Q/25-son qaroriga
5-ilova

Viloyat markazi hamda shahar va tumanlar markazida joylashgan (birinchi darajali) ko'chalar ro'yxati

T/r	Hududlar nomi	Birinchi darajali ko'chalar nomi
1	Angor tumani	At-Termiziy ko'chasi
2	Bandixon tumani	Mustaqillik ko'chasi
3	Boysun tumani	Istiqlol ko'chasi
4	Denov tumani	Sharof Rashidov, Registon ko'chalari
5	Jarqo'rg'on tumani	O'zbekiston ko'chasi
6	Qiziriq tumani	Barhayot ko'chasi
7	Qumqo'rg'on tumani	O'zbekiston, Alisher Navoiy, Davlatsoy ko'chalari
8	Muzrabot tumani	Islom Karimov ko'chasi
9	Oltinsoy tumani	Mustaqillik ko'chasi
10	Sariosiyo tumani	Bodomzor, Abdulla Qahhor ko'chalari
11	Termiz tumani	Al-Xakim at-Termiziy ko'chasi
12	Termiz shahar	Al-Xakim at-Termiziy, Islom Karimov ko'chalari
13	Uzun tumani	O'zbekiston ko'chasi
14	Sherobod tumani	Mustaqillik ko'chasi
15	Sho'rchi tumani	Amir Temur, Mustaqillik ko'chalari

Qo'shimcha izoh:

Ijaraga olingan davlat mulklaridan foydalanish hamda ijara to'lovi summalarini belgilash tartibi, bajariladigan qo'shimcha xarajatlar, kommunal to'lovlarini va yer soliqlarini to'lash, ijaraga olingan davlat mulklarini kapital ta'mirlash, qo'shimchalar qilish ishlari uchun sarflangan xarajatlarni to'lash tartiblari to'g'risida;

a) bino-inshoot hamda asosiy vositalar va avtotransport vositalarini kapital ta'mirlash, qo'shimchalar kiritish ishlarini bajarish uchun sarflangan mablag'lar to'g'risidagi tegishli hujjatlar "Balans saqlovchi"ga taqdim etilganda va tomonlarni roziligi bilan, ushbu sarflangan mablag'lar summasi ijara shartnomasi bo'yicha "Balans saqlovchi"ga to'lanishi lozim bo'lgan ijara to'lovi summasidan chegirib qolinishi mumkin. Ijara vaqtida olingan mahsulot va foyda "Ijaraga oluvchi" ning mulki hisoblanadi;

b) belgilangan ijara to'lovi summasiga yer solig'i, kommunal xarajatlar (va boshqa turdagi xizmatlar) kiritilmagan bo'lib, ushbu xarajatlar bo'yicha "Ijaraga oluvchi" va "Balans saqlovchi" (mulk egasi) o'rtasida asosiy ijara shartnomasiga qo'shimcha alohida shartnoma tuziladi va ushbu shartnoma bo'yicha "Ijaraga oluvchi" mazkur xarajatlarni to'lash majburiyatini oladi;

d) Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablar hududi (ichkarisi)da joylashgan obyektlarni (balansida saqlovchi va ijaraga oluvchilarning xodimlari va/yoki ta'lim oluvchilar uchun xizmat ko'rsatadigan oshxona, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa faoliyatlar bo'yicha) ijara haqi hisoblashda yozgi ta'til davri uchun oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida 2 (ikki) oy va umumiy o'rta ta'lim maktablarida 3 (uch) oy muddatga ijara to'lovlari chegirib beriladi. Ijaraga oluvchi tashabbusi bilan ijara haqi hisoblanishi mumkin.

e) O'qitishga ixtisoslashgan nodavlat harbiy maktablar, avtomobil maktablari uchun ushbu nodavlat maktab talaba va o'quvchilarga xizmat ko'rsatuvchi o'quv xonalari, oshxona, bufet va boshqa savdo, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalariga ijara to'lovlari o'quvchilarning yozgi ta'til davri uchun (yilning iyun, iyul va avgust oylari) chegirib beriladi.